

ABDUQAYUM YO‘LDOSHEVNING “TIMSOHNING KO‘Z YOSHLARI” QISSASIDA PORTRET VA PEYZAJ TAHLILI

Ibroximova Zaynabxon Akbarjon qizi,
FarDU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asar poetikasida qahramonlar xarakteri, ruhiy holati va ijtimoiy qiyofasini ochib berishda portret hamda peyzaj (makon) tasvirining tutgan o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida muallifning “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasi olinib, undagi bosh va ikkinchi darajali obrazlar tizimi badiiy detallar vositasida yoritilgan. Asar davomida Munisa obrazining tashqi ko‘rinishi bosqichma-bosqich o‘zgarib borishi adabiyotshunoslikdagi “dinamik portret” tushunchasi asosida ochib beriladi. Shuningdek, salbiy va ijobiy qahramonlar portretidagi kontrastlar, ularning kiyimi va poyabzali kabi ijtimoiy tashxis qo‘yuvchi detallar o‘rganilgan. Qissada klassik tabiat manzaralaridan ko‘ra, tushkunlik va umidsizlik kayfiyatini bo‘rttirib ko‘rsatuvchi shahar peyzaji hamda interyer (ichki makon) tasviri ustuvorlik qilishi ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: portret, landshaft, dinamik portret, statik portret, tasvir, personaj, tafsilot, interyer.

Аннотация. В данной статье анализируется роль портрета и пейзажа (пространства) в раскрытии характера, психологического состояния и социального статуса персонажей в поэтике художественного произведения. В качестве объекта исследования выбрана повесть «Слезы крокодила», где на основе художественных деталей рассматривается система главных и второстепенных образов. Постепенное изменение внешности Мунисы на протяжении повествования раскрывается через литературоведческое понятие «динамический портрет». Также исследуются контрасты в портретах положительных и отрицательных героев, а также такие социально-диагностические детали, как одежда и обувь. Утверждается, что в повести вместо классических природных ландшафтов преобладают городской пейзаж и интерьер (внутреннее пространство), подчеркивающие атмосферу депрессии и безысходности.

Ключевые слова: портрет, пейзаж, динамический портрет, статический портрет, образ, характер, деталь, интерьер.

Abstract. This article analyzes the role of portrait and landscape (space) descriptions in revealing the character, psychological state, and social background of personages within the poetics of a literary work. Taking the novella "The Crocodile Tears" as the object of research, the system of major and minor characters is illuminated through artistic details. The gradual transformation of Munisa's appearance throughout the narrative is unfolded based on the literary concept of "dynamic portrait". Furthermore, the contrasts between positive and negative characters' portraits, as well as socially diagnostic details such as clothing and footwear, are thoroughly examined. The study demonstrates that instead of classical natural landscapes, the novella is dominated by urban landscapes and interiors (closed spaces) that emphasize the mood of depression and despair.

Keywords: portrait, landscape, dynamic portrait, static portrait, character, characterization, detail, interior.

Kirish. Adabiyotshunoslikda portret qahramonning tashqi qiyofasi orqali uning ichki dunyosi, ijtimoiy kelib chiqishi va psixologik holatini aks ettirish quroli bo‘lsa, peyzaj – tabiat manzaralari vositasida voqealar sodir bo‘layotgan makon hamda qahramon kayfiyatining o‘ziga xos namoyondasidir. D.Quronovning ta’rifiga ko‘ra “portret (fransuzcha portraire – tasvirlamoq) – 1) personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va qiliqlari), o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri”.[1] Bu ta’rif ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan ham ta’kidlangan.

Shuningdek, portret asar poetikasining nozik nuqtasidan biri hisoblanadi. Asarda peyzaj esa ((fransuzcha paysage – joy, yurt) – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopiq makon – interyer) tasviri”)[2] va portret bilan ko‘pincha bir vaqtda, bir-birini to‘ldirib keladi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunoslikda portret va peyzaj masalasi badiiy matn poetikasining muhim komponentlaridan biri sifatida keng o‘rganilgan. Bu borada A. Sulton, H. Boltaboev va D. Quronov kabi olimlarning tadqiqotlarida portret va peyzajning nazariy asoslari, ularning badiiy asardagi funksional vazifalari batafsil yoritilgan. Xususan, D. Quronov portretning personaj xarakterini ochib beruvchi asosiy tasviriy vosita sifatida talqin qiladi.

Shuningdek, rus va o‘zbek adabiyotshunosligida (Адабиёт назарияси I–II jildlar) peyzajning asar kompozitsiyasidagi o‘rni, uning psixologik va estetik vazifalari ham chuqur tahlil etilgan. M. Boboxonov va H. Boltaboev tadqiqotlarida esa portretning psixologik tasvir bilan bog‘liqligi, ayniqsa, dinamik portretning qahramon ichki kechinmalarini ochishdagi roli alohida ta’kidlanadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda (masalan, A. Yo‘ldoshev ijodi tahlillarida) portret va peyzajning faqat tashqi tasvir emas, balki ijtimoiy-psixologik va ramziy ma’nolarni ifodalovchi badiiy vosita ekanligi ko‘rsatib beriladi. Shu jihatdan, “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasida ham ushbu nazariy qarashlar amaliy jihatdan o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda adabiy tahlilning tavsifiy va interpretatsion (talqiniy) usullaridan foydalanildi. Asosiy metod sifatida matnni yaqindan o‘qish (close reading) tanlanib, “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasidagi portret va peyzaj tasvirlari badiiy detallar asosida tahlil qilindi.

Shuningdek, strukturaviy va kontekstual yondashuvlar qo‘llanilib, portret va peyzajning asar kompozitsiyasidagi o‘rni hamda ularning personajlar psixologiyasini ochib berishdagi funksiyasi o‘rganildi. Dinamik va statik portret tushunchalari asosida qahramonlar tasviri bosqichma-bosqich tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy metod ham qo‘llanilib, ijobiy va salbiy obrazlar portreti, shuningdek, shahar peyzaji va interyer tasvirining badiiy vazifalari o‘zaro solishtirildi. Bundan tashqari, sotsiopsixologik yondashuv orqali asardagi detallar qahramonlarning ichki holati va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda izohlandi.

Tahlillar va natijalar. Muallif asarlarida ijobiy qahramonlarni haddan ortiq chiroyli tasvirlanmaydi. Ammo salbiy qahramonlar haddan ziyod xunuk qilib ko‘rsatiladi. “Timsohning ko‘z yoshlari” qissasida ham portret va tabiat tasviri obrazlar xarakterini, kayfiyati va holatini ochib berishga xizmat qilgan. Qissadagi eng ko‘p tasvirlangan portret Munisanikidir. Muallif uning qiyofasini biror joyda to‘liq bermaydi – portret bo‘laklarga bo‘linib, asar davomida asta-sekin to‘lishib boradi. Bu usul adabiyotshunoslikda “dinamik portret” deb ataladi va psixologik tasvirning muhim belgisidir. Munisaning dastlabki tasviri muallif tomonidan chetdan, ishxona muhitida beriladi. Bu tasvir o‘ziga xos

sovuqqon kuzatish ohangi bilan boshlanadi: "...jismaniyam ushoqqina edi-da. Yana esimda qolgani: ingichka barmoqlari shu qadar nozik ediki, qadamni sal qattiqroq qissa bas, ular duv to'kilib tushadigandek edi".[3] Bu portret orqali obrazning "mutelik" xususiyatini yana-da oshirib ko'rsatadi.

"Kichikdan menga qiyin bo'ldi... qizning o'zi o'zgargandi... nima desam ekan, juda og'ir va juda sekin qadam tashlardi".[4] Muallif korrektorning ushbu jumalari orqali Munisaning homiladorligiga ishora qilib o'tadi. Keyinroq, uchinchi bobda, Munisaning to'satdan o'zgargan qiyofasi yanada batafsil beriladi: "Men besharm quyosh nurlari yupqa ko'ylagi ostidagi qomatini ko'z-ko'zlab turgan qizga bir qarashdayoq hammasini tushundim. Go'yo yelkasidagi zil-zambil yukdan xalos bo'lganday qiz qaddini mag'rur rostlab turar, ko'zlari chaqnar, yuzi lovullab yonar...".[5] Muharrir korrektordan "tug'ilgan kun uchun" ruxsat tegmaganidan keyingi tasvirdir. Bu portretda bir nechta badiiy detal bir vaqtda ishlaydi: "yupqa ko'ylak", "qaddi mag'rur", "ko'zlari chaqnar", "yuzi lovullab yonar" – bular barchasi qizning ichki ozodlik his-tuyg'usini ifodalagan. Asardagi aynan shu "tug'ilgan kun" voqeasidan keyin Munisaning portreti pastga qarab harakatlanadi. Ya'ni unda endi avvalgi uyatchanglik, noziklik kabi xususiyatlar o'rni doimiy xomushlik, ko'zlar qizarishi, badanidagi ko'kargan joylar kabi tasvirlar egallaydi.

Asarning so'nggi qismlarida – ruhiy kasalxonada – Munisaning portreti keskin o'zgaradi: "Ozib, cho'p bo'lib qolgan qizning chuqur-chuqur ajinlari ko'paygan keng peshonasiga, goh-goh diqqat bilan, baayni "Aybim ne?" deb so'ramoqchi bo'lganday yolvorib boqayotgan ko'zlariga, quruqshab-yorilib ketgan, bir chekkasida qon qotib qolgan lablariga, mayxo'rnikni yanglig' tinmay titrayotgan ingichka, uzun-uzun, qonsiz barmoqlariga qararkanman...".[6] Bu portret parchasida muallif son-sanoqsiz detallarni bir yerga jamlaydi. Har bir detal alohida ma'no kasb etadi: "chuqur-chuqur ajinlar" – vaqtdan erta qariganlikni, hayotning og'irligini, "yorilib ketgan lablar" – uzoq sukunat, so'z aytolmaslikni, "qonsiz barmoqlar" – hayot kuchining tugab borishi, umidning so'nishini anglatadi. "Mayxo'rnikni yanglig' titrayotgan barmoqlar" o'xshatishi esa ayniqsa kitobxonga keskin ta'sir qiladi – bu qiyoslash orqali muallif ijtimoiy tashxis qo'yadi ya'ni ezilgan, zo'ravonlikka duchor bo'lgan inson mayxo'rlar qatoriga tushirilgan.

Salomat opa portreti qissadagi eng ko'p qirralari tasvirlangan portretdir. "Beo'xshov semirib ketgan, yo'lakka chiqib kelsa, darrov hansirab, yuragidan shikoyat qilaveradigan ellik yoshlardagi ayol...".[7] Bu tasvirdagi "beo'xshov semirish" ayolning pala-partish kundalik hayot kechiridan dalolat qiladi. Shuningdek, bu ayol semizligi tufayli ishxonada "xronik homilador" laqabini ham olgan edi. Sog'ligidagi muammolaridan hammaga shikoyat qilaverishida ham uning turmush tarzidan, hayotidan rozi emasligi bilinib turadi.

Posbonboy portreti asarda batafsil berilmagan bo'lsa-da, unga nisbatan "qarimsiq yuzli" iborasi ishlatiladi. Bu ibora odatda o'z yoshidan ko'ra anchagina katta ko'rinadigan insonlarga nisbatan qo'llaniladi. Yozuvchining boshqa asarlariga e'tibor qiladigan bo'lsak, ularda ham insonning moddiy ahvolini belgilovchi detal sifatida oyoq kiyim olinadi. Bu

qissada ham Posbonboyning oyoq kiyimi o‘zi haqida ko‘p narsani fosh qilib qo‘yadi. Poyabzali moylanaverganidan rangi urinib ketganligi, ustidagi bir enlik chang va hattoki undagi teshikdan barmog‘ining ko‘rinib turishi – uning qay darajada pastkashligi, poyabzal sotib olish uchun mablag‘i yo‘qligi, ammo shu holatida ham yolg‘on gapirib Munisani avramoqchi bo‘lgani kitobxonni hayratga soladi.

“Timsohning ko‘z yoshlari” qissasida tabiat manzaralari, ya‘ni klassik ma‘nodagi peyzaj kam uchraydi. Bu qissa asosan shahar muhitida, yopiq ichki makon (ishxona, uy, shifoxona)da kechadi. Shu sababli muallif tabiat tasviridan ko‘ra ko‘proq “shahar peyzaji” va “ichki makon tasviri” (interer)dan keng foydalanadi. Bu tasvirlar esa asardagi ruhiy muhitni belgilashga yordam beradi.

“Ikki yonboshidagi almisoqdan qolgan, eshiklarsiz ikki shkafi qog‘oz o‘ramlariga to‘la katakdek xonadagi bir yarimta stol (kaminaning stoli xonaga sig‘magani bois shartta o‘rtasidan arralab tashlanib, yetishmay qolgan oyoqlar o‘rniga qog‘ozga o‘ralgan g‘isht qo‘yilgandi) atrofida uch kishi o‘tirardik”. [8] Bu tasvir nihoyatda aniq va mazmunli. “Almisoqdan qolgan shkaflar”, “ikki bo‘lingan stol”, “qog‘ozga o‘ralgan g‘isht” – bu detallar ishxonaning moddiy qashshoqligini, lekin undan ham muhimi, ma‘naviy kambag‘alligini ko‘rsatadi. Stolning o‘rtasidan “arralanishi” va uning yarmiga “qog‘ozga o‘ralgan g‘isht” qo‘yilishi hamma narsa yarim, hamma narsa sinig‘, hamma narsa vaqtinchalik yamoq bilan ushlab turilganini bildiradi. Shuningdek, bu peyzaj tasviri orqali o‘sha davr nashriyotlarining hammasini ham moddiy ahvoli unchalik yaxshi bo‘lmaganini ko‘rishimiz mumkin. O‘z manfaatini o‘ylaydigan kimsalar ya‘ni Salomat opa kabi insonlar ishxonani emas, balki faqatgina o‘z cho‘ntaklarini va nafslarini boyitish bilan mashg‘ul bo‘lishi ham bunga sabab bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Opa to‘g‘ri aytgan ekan: kir bosib ketgan baland kulrang beton devorga taqab qurilgan kichkinagina uchrashuv xonasi ekan”. [9] “Kir bosib ketgan”, “baland kulrang beton devor”, “kichkinagina” – bu uch detal ruhiy kasalxonaning butun ma‘naviy-ruhiy muhitini yetkazib beradi. Bu joy – ozodlikning yo‘qligi, kulrang esa umidsizlik rangi, shu bilan birga insoniylikdan begona makondir. Qissada portret va muhit tasviri ko‘pincha parallel holda beriladi. Munisanning o‘zgarib borgan portreti – ozib-to‘zib qolishi, ko‘zlaridagi vahima – ayni paytda uning yashash makonining torayib borishi, ruhiy kasalxonaga tushishi bilan uyg‘unlashadi.

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda, yozuvchining yuqorida tahlil qilingan qissalarida berilgan portret va peyzaj tasviri asardagi obrazlar psixologiyasi va ijtimoiy-maishiy muammolarni kelib chiqish sabablarini aniqlash bilan birga asarning badiiyatini oshirishga, estetik ta‘sirini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Toshkent: Akademnashr, 2013. 226-бет.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Toshkent: Akademnashr, 2013. 224-бет.

3. Йўлдош А. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 51-52.
4. Йўлдош А. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 51-52.
5. Йўлдош А. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 51-52.
6. Йўлдош А. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 90.
7. Йўлдош А. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 90.
8. Йўлдош А. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 90.
9. Йўлдош А. Тимсоҳнинг кўз ёшлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 90.

